

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MA'NAVY-AXLOQIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Usmonova Nozima Mamadiyor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, talabasi

Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich

o'qituvchisi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

tojiddinyuldashev1@gmail.com

Anotatsiya

Maqolada bola tarbiyasida oilaning o'rnini, milliy qadriyatlarimizning o'quvchi shaxsiga ta'siri, oiladagi muhit, tarbiya, tarbiyaning jamiyatdagi o'rnini, o'qituvchi va ota-ona hamkorligi yoritib o'tilgan bo'lib, keltirilgan tavsiyalar o'quvchi shaxsini tarbiyalash va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni o'quvchida shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: axloq, ma'naviyat, oila, sinf, ta'sir, odob, qadriyatlar, jamiyat, tarbiya, hamkorlik, muhit.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun o'quvchilar ongida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirish, o'quvchilarning oilaviy muhitiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Bilamizki, oila muqaddas qo'rg'on. Har bir oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday ekan, har bir o'quvchi asosiy tarbiyani o'z oilasidan oladi. Bola shaxsini rivojlantirishda oilaning o'rnini juda muhim ahamiyatga egadir. Oilada olingan tarbiya bola hayotining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bolada taassurotlar turli xil bo'ladi. Avvalmbor, o'qituvchilardan bola ongida maktab muhitini shakllantirish va o'sha muhitga olib kirish talab qilinadi. O'qituvchi tomonidan bola tarbiyasidagi kamchilik va nuqsonlar, ijobiy va salbiy xususiyatlari o'rganiladi va yechim topishga harakat qilinadi. O'quvchilarni psixik jihatdan to'la o'rganish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchidan sabr, mashaqqat va anchagina vaqt talab qiladi. Buning uchun o'qituvchilar oila bilan hamkorlikda o'quvchi tarbiyasidagi ma'naviy-axloqiy, ta'limiy va tarbiyaviy nuqsonlarni tuzatishga harakat qilishlari lozim. Shundagina bu harakatlar o'z samarasini beradi. Chunki har bir bola o'z oilasida o'zini yaxshi, baxtli his etsagina uning tarbiyasida ham, ta'lim samaradorligida ham ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Bola oilaning yuzi hisoblanadi. Uning tarbiyasi, o'zini tutishidan oiladiga muhitning qanday ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Maktab va oila hamkorligi har doim samarali bo'lgan. O'quvchining ta'lim va tarbiya olishi maktab tomonidan to'la qonli ta'minlanishi uchun oila hamkorligi kerak bo'ladi. Boladagi kamchiliklarni o'qituvchi bilan birga ota-ona ham to'ldirishi va nazorat qilishi ta'lim jarayonidagi juda muhim masaladir. Bu hamkorlik o'quvchidagi muammoli nuqtalarni tezda anqilashga va ijobiy yechim topishga yordam beradi.

Oilaning asosiy vazifalaridan biri tarbiyaviy vazifasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti quyilguncha javobgardir. Ota-ona san'atkor, bola-san'at

asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Shunday ekan, tarbiya borasida asosiy masalalar oila zimmasiga tushadi.

Bola tarbiyasidagi asosiy masalalar ma'naviy-axloqiyxususiyatlarni shakllantirish hisoblanadi. Bola ongidagi bo'shliqlarni milliy qadriyatlarimiz, bunyodkor g'oyalar, yuksak ma'naviyat va Vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan to'ldirish lozim. Bu albatta, oiladagi tarbiya jarayoniga bog'liq. Oiladagi tarbiya orqali bolaga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq na'munalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Shunday ekan, farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatdan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shunday ekani bolaning atrofidagi yaqinlari o'z odatlari bilan o'zlari sezmaganda holda ularning tarbiyasiga ta'sir qiladilar. Bu masala bolalarning o'qituvchilariga ham taalluqlidir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining ilk o'qituvchilariga, albatta taqlid qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z o'qituvchilarining yurish-turishiga, harakatlariga, gap so'zlariga, hattoki imo-ishoralarga ham taqlid qiladilar. Bu esa har bir o'qituvchidan o'quvchilari bilan munosabatga kirishayotgan paytlarida har bir harakatlariga xushyor va e'tiborli bo'lishlarini talab qiladi. O'qituvchilar har doim to'g'ri va aniq ma'lumot berishga, rost so'zlashga, yolg'on ishlatmasliklariga, o'quvchilar ishonchini yo'qotmasliklariga juda e'tiborli bo'lishlari lozim. Shundagina o'qituvchilar o'quvchilari ishonchiga kira oladilar. Bu esa o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda juda ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni bolalarga o'zlarini tilida sodda va ravon qilib tushuntirishimiz va ongiga singdirishimiz lozim. Bu amaliy ishlar o'quvchilarda Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi tushunchalarni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Bolaning odobli, axloqli, madaniyatli bo'lishi zamirida xalqimizning milliy qadriyatlari yotadi. Ajdodlarimiz haqida qanchalik ko'p bilishsa, faxr tuyg'usini ko'proq his qiladilar. Bu esa ajdodlarimizga munosib farzand bo'lishimiz kerak degan tushunchani shakllanishiga olib keladi.

Farobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: „Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...“ deydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma'naviy-axloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchi shaxsini shakllanishida muhit ham katta ahamiyatga ega. Bola sog'lom muhitda katta bo'lishi va kamol topishi tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom muhit bola uchun kislorod kabidir. Bola sog'lom muhitda nafas olmasa, sog'lom muhitli oilada voyaga yetmasa uning kelajagiga rahna soluvchi omillar ko'payib boradi. Bu holat yillar davomida jamiyat rivojiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Xulosamiz shundan iboratki, tarbiya inson bolasining ajralmas bo'lagidir. Inson bolasi ongli mavjudotdir. Tarbiyali inson esa ongli mavjudotning oliy ko'rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2000.
2. Inomova K.M. «Oilada bolalarning mahnaviy-axloqiy tarbiyasi» - Toshkent:

3. Musurmonova O. «Oila mahnaviyat-milliy g'urur». - Toshkent: O'qituvchi. 1999, - 200 b.
4. Ochilova M. Ochilova N. «O'qituvchi odobi». - Toshkent: O'qituvchi, 1993\7. - 136 b.
5. PEDAGOGICAL DIRECTION COOPERATION BETWEEN FAMILY AND EDUCATIONAL ORGANIZATION. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 4, April 2021.